

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4 (2)

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyeвна	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	167
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARNINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUNDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLISH ISTIQBOLLARI	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	



HUDUDIIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI


Marqayev Xurshid Aliqulovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası mustaqil izlanuvchisi

E-mail: xurshidinvestor@gmail.com

Orcid kod: 0009-0004-5435-5998



Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy mehnat bandligini ta'minlashda avtoservis korxonalarining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi kunda avtomobillar sonining ortib borishi, transport infratuzilmasining kengayishi hamda xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi natijasida avtoservis korxonalari yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omilga aylanmoqda. Tadqiqot davomida avtoservis korxonalarining hududiy bandlikka ta'siri, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni, yoshlar va kasb-hunar egalari bandligini oshirish imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, mazkur sohani rivojlantirish orqali mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va aholining daromad manbalarini kengaytirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida hududlarda zamonaviy avtoservis markazlarini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash va investitsiyalarni jalb etish bandlikni oshirishning samarali yo'nalishlari ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: hududiy bandlik, avtoservis, xizmat ko'rsatish sohasi, mehnat bozori, kichik biznes, tadbirkorlik, ish o'rinlari, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы экономическая и социальная значимость автосервисных предприятий в обеспечении региональной занятости населения. В условиях роста количества автомобилей, расширения транспортной инфраструктуры и развития сферы услуг автосервисные предприятия становятся важным фактором создания новых рабочих мест. В ходе исследования изучено влияние автосервисных предприятий на региональную занятость, их роль в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства, а также возможности повышения занятости молодежи и специалистов. Также рассмотрены вопросы увеличения доходов местных бюджетов, повышения качества услуг и расширения источников дохода населения. В результате исследования обосновано, что создание современных автосервисных центров, подготовка квалифицированных кадров и привлечение инвестиций являются эффективными направлениями повышения занятости в регионах.

Ключевые слова: региональная занятость, автосервис, сфера услуг, рынок труда, малый бизнес, предпринимательство, рабочие места, экономическое развитие.

Annotation. This article scientifically analyzes the economic and social importance of car service enterprises in ensuring regional employment. Today, due to the increasing number of vehicles, expansion of transport infrastructure, and development of the service sector, car service enterprises have become an important factor in creating new jobs. The study examines the impact of car service enterprises on regional employment, their role in developing small business and private entrepreneurship, as well as opportunities for increasing employment among youth and skilled workers. It also highlights issues such as increasing local budget revenues, improving service quality, and expanding income sources for the population. The research concludes that establishing modern car service centers, training qualified personnel, and attracting investments are effective directions for increasing employment in regions.

Keywords: regional employment, car service, service sector, labor market, small business, entrepreneurship, jobs, economic development.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda mehnat bandligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, hududiy mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromad manbalarini kengaytirish va xizmat ko'rsatish sektorini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, avtoservis korxonalari zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda avtomobil transporti vositalari sonining keskin ortishi natijasida ularga texnik xizmat



ko'rsatish, ta'mirlash, diagnostika, ehtiyot qismlar bilan ta'minlash va qo'shimcha servis xizmatlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Bu esa avtoservis korxonalarining iqtisodiy salohiyatini kengaytirib, yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kuchaytirmoqda.

Avtoservis korxonalari faoliyati nafaqat transport vositalarining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi, balki mexanik, diagnost, elektrik, boshqaruvchi, sotuvchi va boshqa ko'plab mutaxassisliklar bo'yicha bandlikni shakllantiradi. Shu bois, hududiy mehnat bandligini oshirishda mazkur korxonalarning o'rni ilmiy asosda tadqiq etilishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bandlik va xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishi masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Adam Smith xizmat ko'rsatish tarmoqlarining iqtisodiyotdagi ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa, John Maynard Keynes bandlikni oshirishda investitsiyalar va xizmatlar sektorining rolini asoslab bergan.

Zamonaviy tadqiqotlarda kichik biznes va servis korxonalari hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida qaraladi. Mahalliy olimlar tomonidan ham O'zbekiston sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi, tadbirkorlik va aholi bandligi o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Biroq avtoservis korxonalarining hududiy mehnat bandligiga ta'siri alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

- statistik tahlil usuli;
- taqqoslash usuli;
- iqtisodiy tahlil;
- tizimli yondashuv;
- kuzatuv va umumlashtirish usuli.

Mazkur metodlar orqali avtoservis korxonalarining ish o'rinlari yaratishdagi o'rni, hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va bandlikka qo'shayotgan hissasi baholandi.

Statistik tahlil usuli – avtoservis korxonalari soni, band bo'lgan ishchilar dinamikasi, hududiy yalpi mahsulotdagi ulushi kabi miqdoriy ko'rsatkichlarni qayta ishlash va ular orasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Taqqoslash usuli – turli hududlardagi avtoservis korxonalarining ish o'rinlari yaratish samaradorligi, shuningdek, sohaning boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan solishtirgandagi o'rnini baholash.

Iqtisodiy tahlil – avtoservis faoliyatining daromadlari, xarajatlari, soliq tushumlari va rentabellik ko'rsatkichlari orqali uning hudud iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini aniqlash.

Tizimli yondashuv – avtoservis korxonalarini bandlik, infratuzilma, aholi daromadlari va hududiy rivojlanish bilan o'zaro aloqador tizim elementi sifatida o'rganish.

Kuzatuv va umumlashtirish usuli – bir necha avtoservis korxonalari faoliyatini bevosita kuzatish, soha mutaxassislari bilan suhbatlar o'tkazish va olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.



TADQIQOT JARAYONIDA FOYDALANILGAN USULLAR

Tadqiqotda avtoservis korxonalarining ish o'rinlari yaratishdagi o'zni, hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va bandlikka qo'shayotgan hissasini aniqlash maqsadida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuv va usullardan foydalanildi.



1 Statistik tahlil usuli

Respublika va hududlar kesimidagi avtoservis korxonalari soni, xizmat ko'rsatish hajmi, ish o'rinlari va bandlik ko'rsatkichlariga doir statistik ma'lumotlar yig'ildi, tahlil qilindi va trendlar aniqlandi.



2 Taqqoslash usuli

Turli hududlar va davrlar bo'yicha avtoservis korxonalarining asosiy ko'rsatkichlari taqqoslanib, bandlik va iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar va o'zgarishlar baholandi.



3 Iqtisodiy tahlil

Avtoservis korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari, investitsiya samaradorligi, daromad va xarajatlar tarkibi o'rganilib, ularning hududiy iqtisodiyotga ta'siri baholandi.



4 Tizimli yondashuv

Avtoservis sohasini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, transport infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish bozori va mehnat bozori bilan o'zaro bog'liqlikda tizimli ravishda tahlil qilish amalga oshirildi.



5 Kuzatuv va umumlashtirish usuli

Amaliy kuzatuvlar o'tkazildi, avtoservis korxonalarining faoliyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi va umumlashtirildi. Natijalar asosida xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.



TADQIQOTDA TAHLIL QILINGAN ASOSIY YO'NALISHLAR



ISH O'RINLARI
YARATISH



HUDUDIY IQTISODIY
RIVOJLANISH



BANDLIKKA
QO'SHAYOTGAN
HISSA

TADQIQOT NATIJASIDA QUYIDAGILAR BAHOLANDI:



Avtoservis korxonalarining yangi ish o'rinlari yaratishdagi o'zni va salohiyati



Ularining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatayotgan ta'siri va samaradorligi



Aholi bandligini ta'minlashdagi hissa va mehnat bozorida ahamiyati



Xulosa: Qo'llanilgan usullar yordamida avtoservis korxonalarining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi keng qamrovli tahlil qilindi va bandlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1-rasm. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi

TAHLIL VA NATIJALAR

Avtoservis korxonalari avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, ehtiyot qismlar savdosi, diagnostika, moy almashtirish, shina xizmati va boshqa servis xizmatlarini amalga oshiruvchi xo'jalik subyektlari hisoblanadi.

Ularining asosiy afzalliklari:

- nisbatan kam investitsiya bilan tashkil etilishi;
- doimiy talab mavjudligi;
- kichik va o'rta biznes uchun qulayligi;
- ko'p turdagi kasblarni qamrab olishi.

1-jadval

Hududiy bandlikka ta'siri avtoservis korxonalari quyidagi yo'nalishlarda bandlikni oshiradi

Yo'nalish	Ta'siri
Bevosita bandlik	Usta, mexanik, elektrik, diagnost xodimlari
Bilvosita bandlik	Ehtiyot qismlar savdosi, logistika, yetkazib berish
Yoshlar bandligi	Kasb-hunar bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash
O'zini o'zi band qilish	Xususiy ustaxona ochish imkoniyati

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, avtoservis korxonalari hududiy mehnat bozorida yuqori bandlik salohiyatiga ega. Ayniqsa, avtomobillar soni ko'p bo'lgan hududlarda bu soha yangi ish o'rinlari yaratishda muhim manba hisoblanadi.

Agar zamonaviy servis markazlari soni oshirilsa, kasb-hunar markazlari bilan integratsiya kuchaytirilsa hamda imtiyozli kreditlar ajratilsa, minglab yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin.

Shuningdek, avtoservis sohasida raqamli boshqaruv, onlayn navbat tizimi, elektron buyurtmalar va servis monitoringini joriy etish xizmat sifati hamda daromadlilikni oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududiy mehnat bozorini barqarorlashtirish va ishsizlik darajasini pasaytirishda avtoservis korxonalari strategik ahamiyatga ega bo'lgan drayver sohalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot doirasida olingan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Bandlik tuzilmasidagi o'rni: Avtoservis sohasi mehnat sig'imi yuqori bo'lgan soha bo'lib, u nafaqat tor doiradagi texnik mutaxassislar (mexanik, elektrik), balki xizmat ko'rsatish, logistika va menejment yo'nalishlarida ham yangi ish o'rinlarini yaratadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bitta o'rta hajmdagi avtoservis korxonasi bevosita va bilvosita 10 dan 15 tagacha oilaning daromad manbai bo'lishiga xizmat qiladi.

Yoshlar bandligi va malaka oshirish: Soha yoshlar bandligini ta'minlashda "ustoz-shogird" an'alarini raqamli texnologiyalar bilan birlashtirgan holda samarali modelni taklif etadi. Bu, ayniqsa, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan, lekin texnik ko'nikmalarga ega yoshlarni qisqa muddatda mehnat bozoriga integratsiya qilish imkonini beradi.

Norasmiy bandlikni legallashtirish: Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, avtoservis xizmatlarini tizimli tashkil etish va ularga imtiyozli sharoitlar yaratish orqali "yashirin iqtisodiyot"da faoliyat yuritayotgan ustalar mehnatini qonuniy asosga o'tkazish mumkin. Bu nafaqat aholining ijtimoiy himoyasini, balki mahalliy byudjet tushumlarining ortishini ham ta'minlaydi.

Hududiy iqtisodiy barqarorlik: Avtoservis korxonalari yo'l bo'yi infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida hududning investitsiyaviy jozibadorligini va aholining harakatlanish erkinligini oshiradi. Bu esa o'z navbatida boshqa turdagi xizmat ko'rsatish ob'ektlarining (savdo, umumiy ovqatlanish) zanjirsimon rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Amaliy tavsiyalar:

Hududlarda avtoservis klasterlarini tashkil etish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish;

Kasb-hunar maktablarida zamonaviy avtomobillarga (elektromobillar, gibrid tizimlar) xizmat ko'rsatish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini ko'paytirish;

Soha subyektlari uchun raqamli soliq imtiyozlari va imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, hududiy mehnat bandligini ta'minlashda avtoservis korxonalarining rolini kuchaytirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikka erishish, balki hududning ijtimoiy muvozanatini saqlashning muhim instrumentidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank. Employment and Services Sector Development Reports.
2. International Labour Organization. Regional Employment Trends Reports.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Mehnat bozori statistik ma'lumotlari.
4. Asad o'g'li, R. D. (2025). Qashqadaryo viloyatida sanoatni innovatsion rivojlantirish tendensiyalari. Journal of New Century Innovations, 89(2), 106–110.
5. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari.
6. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti bo'yicha ilmiy maqolalar va monografiyalar.
7. Asad o'g'li, R. D. (2025). Mintaqada sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning solishtirma ekonometrik modellari. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 49(1), 323–326.
8. Asad o'g'li, R. D. (2025). Mintaqada sanoat ishlab chiqarishning baholash omillari. Journal of New Century Innovations, 89(2), 103–105.
9. Tatarkin, A. I., & Kuklin, A. A. (Eds.). (2007). Kompleksnaya metodika diagnostiki sotsialno-demograficheskoy bezopasnosti regiona. Yekaterinburg: Institut ekonomiki UrO RAN, 155 s.
10. Asad o'g'li, R. D. (2025). Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy innovatsion rivojlantirish istiqboli. Global Trends in Science and Innovation, 1(1), 104–109.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100